

AMIR HAYDAR VA FATHALISHOH DAVRIDA BUXORO–ERON ELCHILIK
ALOQALARI

Jahongirova Munira Muroddin qizi

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Tarix fakulteti Tarix
yo'nalishi 301-guruh talabasi*

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi va Eron o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tahlil qilinadi. Xususan, Amir Haydar tomonidan Fath Ali Shoh Qajar ga yo'llangan maktublar, elchilik almashinuvi hamda "Safarnomayi Buxoro" asarida keltirilgan ma'lumotlar asosida ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, madaniy va savdo aloqalarining rivojlanish jarayoni yoritiladi. Maqolada shuningdek, o'sha davrda keng tarqalgan qullar savdosi masalasi va uning ikki davlat munosabatlariga ta'siri. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, murakkab siyosiy vaziyat va ziddiyatlarga qaramay, Buxoro va Eron o'zaro manfaatlarga asoslangan diplomatik aloqalarni saqlab qolishga intilgan.*

Kalit so'zlar: *Buxoro amirligi, Eron, Qojarlar sulolasi, Amir Haydar, Fathalishoh, diplomatik aloqalar, elchilik, Safarnomayi Buxoro, qullar savdosi, XIX asr, tashqi siyosat, Markaziy Osiyo.*

ANNOTATION: *This article analyzes the diplomatic relations between the Emirate of Bukhara and Iran in the first half of the 19th century. In particular, the development of political, cultural and trade relations between the two countries is highlighted based on the letters sent by Amir Haydar to Fath Ali Shah Qajar, the exchange of embassies and the information contained in the work "Safarnomayi Bukhara". The article also discusses the issue of the widespread slave trade at that time and its impact on the relations between the two countries. The results of the study show that, despite the complex political situation and conflicts, Bukhara and Iran sought to maintain diplomatic relations based on mutual interests.*

Keywords: *Emirate of Bukhara, Iran, Qajar dynasty, Amir Haydar, Fathali Shah, diplomatic relations, embassy, Safarnomayi Bukhara, slave trade, 19th century, foreign policy, Central Asia.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье анализируются дипломатические отношения между Бухарским эмиратом и Ираном в первой половине XIX века. В частности, освещается развитие политических, культурных и торговых связей между двумя странами на основе писем, отправленных эмиром Хайдаром Фатхали-шаху Каджару, обмена посольствами и информации, содержащейся в труде «Сафарномаи Бухара». В статье также рассматривается вопрос широко распространенной в то время работорговли и ее влияние на отношения между двумя странами. Результаты исследования показывают, что, несмотря на сложную политическую ситуацию и*

конфликты, Бухара и Иран стремились поддерживать дипломатические отношения, основанные на взаимных интересах.

Ключевые слова: *Бухарский эмират, Иран, династия Каджаров, эмир Хайдар, Фатхали-шах, дипломатические отношения, посольство, Сафарномаи Бухара, работорговля, XIX век, внешняя политика, Центральная Азия.*

XIX asrning birinchi yarmi Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqasida siyosiy jarayonlar keskinlashgan, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarilgan davr sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Buxoro amirligi va Eron o'rtasidagi diplomatik aloqalar mazkur davr xalqaro munosabatlar tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, nafaqat siyosiy, balki savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishida ham muhim o'rin tutgan. Bu davrda har ikki davlat murakkab ichki va tashqi siyosiy sharoitda faoliyat yuritgan bo'lsa-da, ular o'zaro manfaatlarga asoslangan aloqalarni yo'lga qo'yishga intilgan. Mang'itlar sulolasi boshqaruvidagi Buxoro amirligi hamda Qojarlar sulolasi hukmronligidagi Eron o'rtasidagi munosabatlar elchilik almashinuvi, diplomatik yozishmalar va savdo karvonlari orqali amalga oshirilgan. Bu aloqalar mintaqadagi siyosiy muvozanatni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash hamda iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro va Eron o'rtasidagi munosabatlarda bir qator sabablarga ko'ra yaxshi qo'shniçilik munosabatlari deyarli yo'q edi. Buning asosiy sabablaridan biri Eronning Xuroson hududlariga tez tez hujumlari va ikki tomonning qurolli to'qnashuvlari ikki davlat o'rtasida tinç totuvlikka imkon bermasdi. Shunday bo'lishiga qaramay ikki tomon hukmdorlari ham tinç totuvlikni saqlab qolish uchun o'z elchilarini yuborib turishardi. Lekin bu elchilik munosabatlari haqida manbalar ko'p emas. Bulardan biri "Safarnomayi Buxoro"¹³ asari hozirgi kunda Tehronda Eron Milliy Majlis kutubxonasining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Ikkinchisi esa, Eron tarixchisi Husayn Zamoni yozganidek, "Eron bilan Buxoro aloqalarining matlabi manbalarda va tadqiqotlarda zikr qilinmaydi, faqat ayrim to'plamlarda Buxoro amiridan maktub kelganligi eslatiladi, xolos". Bu maktublar aynan "Amir Haydarning maktublari"¹⁴ hisoblanadi. Ammo hamma maktublar ham saqlanib qolmagan. Hozirgi kunda bor bo'lganlari O'z FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

XIX asrning birinchi choragida Buxoro va Eronning diplomatik aloqalariga oid hujjatlar asosan, amir Haydar (1800-1826)ning Eron shohi Fathalishoh (1803-1833)ga yo'llagan maktublari hisoblanadi. Hazrat amir Haydar Eron hokimi Fathalishohga yozdilar: U podshohi olamga behisob hamdu sanolar munosibdirki, uning davlati hududlari yov xurujidan va mulklari fazosi dushman zarbidan mustasnodir. Rasulullohning ruhi pokiga beadam duolar

¹³ M.M.Xayrullayev – "O'zbek diplomatiyasi tarixidan" – Toshkent-2003

¹⁴ M.M.Xayrullayev – "O'zbek diplomatiyasi tarixidan" – Toshkent-2003

tuhfa bo'lsinki, payg'ambarlik yetakchiligi uning maqgovli zotiga ravodir. Unga, yaqinlariga va ashobalarining jam'iga Ollohning salomlari bo'lsin! Yaratganga sanolar va maqtoqli (mahmud) yetakchi maqomidagi sultonga duolardan so'ng ko'ngil oinasida benazir bo'lgan podshoh - Jamshid' maqomiga munosib, lashkari Yulduzlarcha sanoqsiz, oftob yangliq toj egasi, osmondek baland, Surayyo (Yupiter)dek martabalik, Bahrom(Mars)dek savlatlik, Keyvon (Saturn)dek Yuksak, Nohid (Venera)dek qobiliyatlik, Utgorud (Merkuriy)dek ziyrak, Jamshiddek shavkatli, Feridundek¹⁵ hashamatli, Dorodek¹⁶ posbon, Husravdek¹⁷ nishondor (belgilik), emni omonlik bisotini yoyuvchi, Eron mulklarining hukmdori, shavkatga tartib beruvchi, makdxev va jilolarga ehtiyoji bo'lmagan, tavsif va bayonlardan Yuqori turuvchi, davlatini Olloh inoyat qilgan Fathalishohga yetkaziladi va ma'lum qilinadiki, hazratullo dargohining bu niyozmandi bundan avval hazrati xalifai islomdan kitob so'ragan edi. Mamlakatlar bezagi bo'lgan ul hukmdor iltifot va mehribonlik bilan hurmatli imomlar va buyuk mujtahidlarning - Olloh ularni rahmat qilsin! - bir necha kitoblarini Bag'dod voliysiga Yuborib, ul zotga kitoblarni bu tarafga yetkazishni buyurib-dilar. Mazkur voliy o'sha kitoblarni o'zining ishonchli kishilaridan biri orqali bu tarafga yetkazdi. Elchi etib kelgandan va kitoblar topshirilgandan keyin, mazkur kitoblarni biz tarafga Yubortirgan shahriyoriy zotini bu ma'nidan to'la xabardor qilmoq uchun lozim bo'ldiki, bu taraf ham o'zimizning davlatxoxlarimizdan birini a'lo hazrat xoqon saroyiga ravona qildik. Binobarin, imoratpanox, ikki sharkf maxramga xaj qilgan hoji Muhammad Sharifbeyn (ul zot davlatxoxlarimiz jumlasiga kiradi) mazkur elchi hamrohligida jo'natdik. Humoyun ko'rinish sharafiga musharraf bo'lgach, zoti oliyni duo qilib, maqsad manzili tomon shoshilsin. Ikki davlat bir davlat (dek hamdam) va boshqa hech qanday maqsadu muddaomiz yo'q. Bundan buyon oliy davlat o'rtasida oshnolik va bordi-keldilar yo'li ochiladi va Yaratganning xayriyati va marhamati tushadi. Boshqa gaplarni mazkur imoratpanoh og'zidan eshitasiz. Shahriyoriy davlatining quyuq soyasi uzun va davomli bo'lsin! Bu tarafga (ko'rsatiladigan) xar q ancha izzat-ikromdan umid shuki, (Olloh taoloning) va'dasiga ko'ra, kim mening avlodimni siylasa, men uni ko'proq siylayman. Duoda qolaman"

Amir Haydar tomonidan Fath Ali Shoh Qajar ga yo'llangan mazkur maktub Buxoro amirligi va Eron o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning muhim yozma manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu hujjat o'zining mazmuni, uslubi va diplomatik mazmun yuklamasi jihatidan Sharq davlatlari o'rtasidagi yozishmalar an'anasini yaqqol aks ettiradi.

Maktub an'anaviy tarzda Allohga hamdu sanolar va Payg'ambar Muhammad (s.a.v)ga salovotlar bilan boshlanadi. Bu jihat muallifning diniy dunyoqarashi hamda siyosiy hokimiyatni ilohiy manbaga bog'lashga intilganini ko'rsatadi. Shu orqali maktubga muqaddaslik va rasmiylik ohangi beriladi. Keyingi qismda Eron hukmdori yuksak badiiy

¹⁵ Firdavsiyning "Shohnoma"sida kuylangan afsonaviy shohlardan biri

¹⁶ Ahmoniyar davlatining (mil. av. XI-IV asrlar) mashhur podshohi.

¹⁷ 590-628 yillarda hukmronlik qilgan sosoniylar sulolasining shohlaridan biri.

ifodalar orqali ulug'lanadi. Fathalishohning Jamshid, Feridun, Doro va Husrav kabi tarixiy va afsonaviy shaxslar bilan qiyoslanishi, shuningdek, sayyoralar bilan bog'liq tashbehlar orqali tavsiflanishi Sharq diplomatik yozishmalariga xos bo'lgan panegirik uslubni namoyon etadi. Bu nafaqat hurmat ifodasi, balki ikki hukmdor o'rtasidagi siyosiy tenglikni bilvosita e'tirof etish vositasi hamdir. Maktubning asosiy qismida esa diplomatik aloqalarning amaliy jihatlari bayon etiladi. Xususan, Amir Haydar tomonidan Eron hukmdoridan diniy-ilmiy asarlar so'ralgani va ushbu kitoblar Bag'dod orqali yetkazilgani qayd etiladi. Bu holat ikki davlat o'rtasida faqat siyosiy emas, balki ilmiy va diniy aloqalar ham mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Shuningdek, maktubda elchilik almashinuvi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Amir Haydar tomonidan Hoji Muhammad Sharifbiy boshchiligidagi elchining yuborilishi ikki davlat o'rtasidagi rasmiy diplomatik aloqalarning izchil davom etayotganidan dalolat beradi. Elchining vazifasi nafaqat sovg'a va xabar yetkazish, balki ikki tomon o'rtasidagi siyosiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashdan iborat bo'lgan. Maktubda alohida urg'u berilgan jihatlardan biri — ikki davlat o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik g'oyasidir. Shu bilan birga, maktubda siyosiy noziklik saqlanib, har ikki tomonning sha'ni va mavqei yuqori darajada e'tirof etiladi.

"Safarnomayi Buxoro" asarida XIX asrning I yarmida qullar masalasi, asirlarni qul qilib sotish - o'sha betinch zamonning mudhish belgilaridan biri bo'lib qolgan edi. Bu odat faqat Buxorodagina emas, balki qo'shni mamlakatlarda ham mavjud edi. Hind sayyohi Mohan La'l Qunduzda (Afyoniston) bozorda qullar sotilayotganini ko'rgani, rus sayyohi I.P. Pashino esa Sori (Eron)da qullar bozori bo'lganligi haqida guvohlik berishadi. Buxoroda keng tus olgan asirlarni (xususan, eronliklarni) sotishda islomning sunniy va shia mazhablari o'rtasidagi ziddiyatlarning ta'siri ham rol o'ynay edi. Buxoro amiri Eron elchisi bilan suhbatda asirlar haqida gapirib, ularni sotish va xarid qilish qadim zamonlardan buyon ulamolarning fatvolari asosida davom etib kelayotgani va fuqaro ularni naqd pulga sotib olgani bois qaytarib bermasligini aytadi. Muayyan bir vaqt o'tib, Eron bilan ittifoq mustahkamlansa, o'zar o'bordikeldilar kengaysa, bu muammo ham o'z-o'zidan barham topadi, deb umid bildiradi amir.

Aynan Buxorodagi qullar savdosi ikki davlat o'rtasidagi diplomatik va savdo aloqalariga katta to'siq bo'lib kelgan. Bu masala uzoq vaqt davomida bahsli muammolardan biri hisoblangan. Eron elchi qul savdosini to'xtatish haqida o'z takliflarini berganda Buxoro amiri ham rad etmaydi. Kelajakda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar yanada yaxshilansa bu muammolar bo'lmasligini aytadi. Bundan ko'rinib turibdiki bu davlatlar o'rtasidagi munosabatlar unchalik ham yomon emas.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amiri Eronga yuborgan Hoji Muhammad Sharifbey boshchiligidagi elchilik hamda shu munosabat bilan Fathalishohga yo'llagan maktub va sovg'a-salomlar XIX asrning birinchi choragida Buxoro va Eron o'rtasida tez-tez sodir bo'lib turgan ziddiyatlar sharoitida ham diplomatik aloqalarni saqlab turish va o'zaro kelishmovchiliklarni bartaraf qilishga intilishlar ikki o'rtasidagi elchilik munosabatlarida o'z aksini topganidan dalolat beradi. XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi va Eron o'rtasidagi munosabatlar murakkab va ziddiyatli bo'lsa-da, ular diplomatik aloqalami

uzluksiz davom ettirishga intilgan. Amir Haydar tomonidan yuborilgan maktublar va elchiliklar ikki davlat o'rtasida o'zaro hurmat va manfaatlarga asoslangan muloqot mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husayn Zamoniy – Eron va Buxoro o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixi – Tehron nashriyoti – Tehron – 2005
2. Muhammadjonov A. – Buxoro amirligi tarixi – Fan nashriyoti – Toshkent – 1994
3. Ahmedov B. – O'zbekiston tarixi manbalari – O'qituvchi nashriyoti – Toshkent – 2001
4. Safarnoma muallifi (Mohan Lal) – Safarnomayi Buxoro – Eron Milliy Majlis kutubxonasi qo'lyozmalar fondi – Tehron – XIX asr
5. Pashino I.P. – Puteshestviye po Sredney Azii i Iranu – Nauka nashriyoti – Moskva – 1870
6. Bartold V.V. – Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida – Fan nashriyoti – Toshkent – 1963